

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174594>

1-SINF ONA TILI DARSLIKALARIDA ATAMALAR VA ULARNING IZOHLARI

Elubaeva Sevara

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada 1-sinf darsliklarida keltirilgan atamalar, izohtalab so‘zlar va ularning izohlari; 1-sinf o‘quvchilarining lug‘atini boyitish yo‘llari haqida ma’lumotlar beriladi. Darslikda keltirilgan izohtalab so‘zlar va atamalar o‘quvchilarning yoshiga mosligini o‘rganishdan iborat.*

KALIT SO‘ZLAR: *so‘z, lug‘at, leksikologiya, leksikografiya, nutq, imloviy lug‘at, ibora, tasviriy ifoda, lug‘at ishlarining mohiyati, adabiy til.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье приведены термины, пояснительные слова и их пояснения в учебниках для 1 класса; Представлена информация о способах обогащения словарного запаса учащихся 1 класса. Объяснение слов и терминов, представленных в учебнике, проводится с учетом соответствия возрасту учащихся.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *слово, словарь, лексикология, лексикография, речь, орфографический словарь, словосочетание, образное выражение, сущность словарной работы, литературный язык.*

ANNOTATION: *This article presents terms, explanatory words and their explanations in textbooks for the 1st grade; Information is provided on ways to enrich the vocabulary of 1st grade students. Explanation of words and terms presented in the textbook is carried out taking into account the correspondence to the age of students.*

KEYWORDS: *word, dictionary, lexicology, lexicography, speech, spelling dictionary, phrase, figurative expression, essence of vocabulary work, literary language.*

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim mustahkam poydevor rolini o‘taydi.Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi O‘qish savodxonligi va Ona tili darslarida amalga oshiriladi. Ona tili va O‘qish savodxonligi fanlarining vazifalaridan biri o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish hisoblanadi.

O‘quvchilar nutqini o‘sirish, avvalo, ularning lug‘atini boyitish bilan bog‘liqdir.O‘rganilayotgan matn yuzasidan lug‘at ishi o‘tkazish jarayonida o‘quvchilar tilning lug‘at tarkibiga xos bo‘lgan eskirgan so‘zlar, yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, kasb-hunarga oid so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, badiiy uslubga xos so‘zlar bilan amaliy jihatdan tanishib boradilar. Hozirda shahar joyda ko‘p qavatli uylarda yashaydigan bola bilan qishloqda hovli uyda yashaydigan bolaning bolaning fikrashi ham, lug‘at olami ham bir-biridan katta farq qiladi. Qishloqda hovlida yashaydigan bolaning biladigan so‘zlarini shaharlik bola bilmasligi tabiiy hol deb o‘ylaymiz.

O‘quvchi lug‘atini boyituvchi manbalarga darsliklar, o‘qigan kitoblari, jurnallari, ko‘rgan filmlari, multfilmlar, ko‘rsatuvarlar, kattalar bilan muloqoti kiradi.Boshlang‘ich ta’limda lug‘at ustida ishlashning umumiyo yo‘l-yo‘riqlari, yo‘nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lsada, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo‘lmaydi.

Lug‘at ustida ishslash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o‘rganishda, asosan, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida darslik materiallarini o‘rgatish bilan bog‘liq holda olib boriladi.

Ona tili darslarida lug‘at ustida ishslash o‘quvchilar nutqini o‘sirishga, savodxonligini shakllantirishga, so‘z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o‘quv jarayonida davom ettiriladi.Maktabda nutq o‘sirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Maktabda lug‘at ustida ishslash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1.O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8-10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so‘zni qo‘sishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.

2.O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosini yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.

3.Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi.

Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo‘lishi natijasida so‘z, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so‘zlarni o‘rganadi, ularni o‘z so‘zlariga aylantiradi.

Ona tili darsliklaridagi mashqlarni tahlil qilish jarayonida quyidagi izohtalab so‘zlarni uchratdik:

- Bol-tot, lazzat. Til bor - bol keltirar, til bor- balo keltirar.
- Fazogir-fazoviy kema ekipaji a’zosi.Fazogirlar koinotda ishlashadi;
- Buloq- yer osti suvlarining tabiiy holatda yer yuziga chiqishi;
- Gadget-kichik, qo‘lda olib yursa bo‘ladigan texnologik qurilma;
- Havolanmoq-mag‘rurlanmoq.g‘ururi oshmoq;

- Ishkom- toklarni ko‘tarib o‘stirish uchun poya va bag‘azlardan qurilgan arksimon so‘ri;
- Istiqlol-inson, millat, davlatning boshqalarga tobe bo‘lmay, o‘z erki bilan yashashi, o‘zini o‘zi idora etishi;
- Jilg‘a-kichik soy,daryocha;
- Jo‘yak-bahorda yer yetilganda olinadigan ekish arig‘i;
- Jala- qisqa muddatli,kuchli yomg‘ir.
- Madh-maqtovini qilmoq;
- Maqol- xalq og‘zaki ijodi janri,qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmathli ibora. Uni otalar so‘zi deb ham atashadi;
- Mash’al-yoritish yoki o‘t yoqish uchun ishlatiladigan tayoq;
- Nasl-ma’lum belgi xususiyatga ega, bir turga mansub o‘simliklar va bir zotga mansub hayvonlar guruhi;
- Sumalak-qorning erib oqib, qayta muzlashi natijasida hosil bo‘lgan naysimon,cho‘zinchoq muz;
- Tiraj-kitob,gazeta jurnalning bosilib chiqqan nuxalarining umumiyligi soni,adadi;
- Tomorqa- qishloq mehnatkashlarining ixtiyoridagi, odatda, ularning qo‘rg‘oni, hovli-joyi yonida joylashgan yer bo‘lagi;
- Xaskash-xashak, xascho‘p va boshqalarni yig‘ish, to‘plash yoki urug‘l sochib ekiladigan o‘simliklarni ekishga mo‘ljallangan uy-ro‘zg‘or buyumi;
- Shu’la-lipillab, ko‘rinib-ko‘rinmay turgan olov yoki yorug‘lik.

Bu so‘zlarni o‘qituvchi o‘z tajribasi va kreativ yondashuvi orqali o‘quvchilarga yetkazib berishi mumkin.Misol uchun 1-sinf Ona tili darsligidagi 2-mavzu 1-mashqdagi “Sumalak” so‘zini olaylik, bilamiz uning ikkita ma’nosi bor, bu ma’nolarni o‘quvchi bilib olishi uchun har ikkalasining rasmini ko‘rsatib, ta’rifini keltirish orqali o‘quvchiga yetkazib berish mumkin.”Xaskash” so‘zini ham o‘quvchilar tushunishi qiyinroq, xaskash uy-ro‘zg‘or buyumi bo‘lgani uchun uning qanaqa bo‘lishini, ishlatilishini videolar orqali ko‘rsatib berish maqsadga

muvofiqdir. Darslikdagi "jo'yak", "jala", "tiraj", "jilg'a", "ishkom" kabi so'zlarni o'quvchilar yoshiga, fikrlashiga qarab tushuntirish lozim.

O'qigan matnlaridagi notanish so'zlar bilan asta-sekin tanishib borish oqibatida o'quvchida yaxshigina lug'at boyligi paydo bo'ladi.

1-sinf o'quvchilariga darslikda berilgan tasviriy ifodalar va iboralar ham notanish bo'ladi. Tasviriy ifoda, ibora va izohtalab so'zlar bilan tanishib borish natijasida o'quvchilarda topqirlik, fikrlash, dunyoqarash shakllanib boradi. O'quvchilarda lug'at boyligini oshirish bilan birga imloni ham birga olib borish kerak bo'ladi, shunda o'quvchilarda ham lug'at boyligi, ham to'g'ri yozish shakllanib boradi. Lug'at ishlarini o'tkazishda o'qituvchi o'quvchining umumiy nutq madaniyatiga ta'sir qiladi, unga umumiy ravishda qabul qilingan adabiy so'zlar va ifodalarni ma'lum qiladi, ularni to'g'ri talaffuz qilishni o'rghanadi, bunda u bolalarda uchraydigan bolalarcha sheva leksikasini bartaraf etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov. Nutq boyligi. // "Umumiy filologik tadqiqotlar muammolar va ularning yechimlari". - Jizzax. 2011. 22-bet.
2. Safo Matchonov, X. Bakiyeva, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, G. Xolboyeva. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi darslik". -T.: Ishonchli hamkor, 2021. 648-bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, -T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-1-jild.
4. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda ona tili darslari. -T.: Taffakur, 2007.
5. Sh. Yuldasheva 1-sinf Ona tili darsligi. Novda, 2023.